O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TERDU yoshda 1954

“YOSHLARNI KASB-HUNARGA TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI” MAVZUSIDA

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI



TERMIZ-2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

“YOSHLARNI KASB-HUNARGA TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI”

mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI
2024-yil 17-18-may

I qism

МАТЕРИАЛЫ

Республиканской научно-практической конференции по теме
“АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ”
17-18 мая 2024 года

часть I

Proceeding of the republican scientific and practical conference
“THE URGENT PROBLEMS OF VOCATIONAL TRAINING OF YOUTH”
17-18-may, 2024

part I

Termiz-2024

UO‘K: 378:331.108(08)
KBK:74.00+65.050.2
Y 54

“YOSHLARNI KASB-HUNARGA TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI”
Respublika ilmiy-amaliy anjumani

Mazkur to‘plamda yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning dolzarb muammolari yechimi bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan mamlakatimiz, MDH mamlakatlari va xorijiy davlatlarning taniqli olimlari, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, doktorantlarning zamonaviy tadqiqotlari: Umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi uzviy va uzluksiz hamkorlik aloqalarining ahamiyatini ilmiy-nazariy asoslash, yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashda raqamlashtirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish muammolarining yechimiga tavsiyalar ishlab chiqish, zamonaviy texnikalar va vositalarining yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashda tutgan ahamiyatini ilmiy-nazariy asoslash, IT parklarning umumiy o‘rta, professional, oliy ta’limdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish, kichik mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi innovatsion yondoshuvlarni tadbiq etish, yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashdagi pedagogik texnologiyalar va ilm-fanning dolzarb masalalarini ilmiy-nazariy asoslashning muhim masalalari o‘z aksini topgan.

Mazkur to‘plam materiallaridan barcha turdagi ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrlar, talabalar hamda sohaga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Anjuman materiallari Termiz davlat universiteti ilmiy-uslubiy kengashining 2024-yil 13-apreldagi № 7-bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir:
M.X.Shomirzayev. TerDU professori, pedagogika fanlari doktori;

Tahrir hay’ati a’zolari:
Karshiyev F.U. TerDU dotsenti, texnika fanlari doktori;
Tursunov Sh.Ch. TerDU dotsenti, qishloq xo‘jalik fanlari doktori;
Umirov A.T. TerDU katta o‘qituvchisi, texnika fanlari falsafa doktori;
Qodirov B.E, TerDU dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori;
Haydarov R.M. TerDU katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari falsafa doktori;
Hayitov J.X. TerDU katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari falsafa doktori;
Nurmamatov Z.Sh. TerDU katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari falsafa doktori;
Axmatov B.R. TerDU katta o‘qituvchisi;
Abduraxmonov J.Sh. TerDU o‘qituvchisi.

To‘plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni, ilmiy salohiyati va dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

ISBN: 978-9910-724-11-4

© “YOSHLARNI KASB-HUNARGA TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.
© “SURXON ILM NASHRI” nashriyoti, 2024-y.

O‘QITUVCHILARDA KREATIV FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISHNING SHAKL VA METODLARI

Ne’matov Bo‘ritosh Saydullayevich
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni takomillashtirishning shakllari va metodlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, kreativlik, munosabat, o‘qituvchi kreativligi, g‘oyalar majmui.

Ko‘plab tadqiqotchilar kreativlikni belgilashda shaxsning o‘ziga xosligi va xususiyatlariga e’tibor qaratadilar. J.Gilfordning fikricha, kreativlik va ijodiy imkoniyat qobiliyatlar va ijodiy tafakkurga ta’sir etuvchi omillar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, psixolog olimlar tomonidan kreativlikning modelini yaratish, uni tashxis qilish va rivojlantirish metodlarini ishlab chiqishga doir ham urinishlar amalga oshirilgan. Chet el olimlarining kreativlik tushunchasi haqidagi izlanishlarini tahlil qilib va umumlashtirib R.Xameni yozadi: “Kreativlik o‘zida yangicha yo‘sinda amalga oshirilgan o‘zlashtirish to‘lqinini (Makkelif), yangicha aloqadorliklarni aniqlash (Kyubi), yangicha munosabatga kirishish (Rodjers), yangiliklar (Lassuel), ongning yangicha e’tirozlariga sabab bo‘luvchi faoliyatidir”.

E.Torrens kreativlik yechimlarni topishda bilimlarning yetarli bo‘lmasligi muammosi, qiyinchiliklar qarshiligidagi indentifikatsiya va taxminlarning shakllanishi, yechimlarning topilish jarayoni deb qaraydi.

Ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-boshqaruv darajasida – ijodkorlik determinantlari borasida jamoa ijodkorligini boshqarishda tashkilotchilik muammosi, jamoaning funktsional-rolli differentsiyasi yo‘nalishi bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda.

N.F.Talizinaning fikricha, mutaxassis kadrlar, professor, olimlarni yetishtirishda o‘quv-tarbiya bo‘yicha amaliy ishlarni olib borish uchun mutaxassisga zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarning kreativ faoliyatini tarkibiy qismlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Kreativlik” va “o‘qituvchi kreativligi” tushunchalarining mazmun mohiyatini ochib berishga to‘xtalib o‘tamiz. Zamonaviy pedagogikada “Kreativ pedagogika” tushunchasi qo‘llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq ta’lim-tarbiyaviy jarayonga innovatsion hamda kreativlik yondashuvlarni qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlari orasida mustaqil o‘quv fani sifatida shakllanishini ta’minladi. Ushbu o‘quv fani asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g‘oyalari tashkil etadi. “Kreativ pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart- sharoitni yaratishga xizmat qiladi [88; 56-b.].

O‘qituvchi shaxsining mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra, jarayon tarzda namoyon bo‘ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g‘oyalarining qaror topishi yoshlikdan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo‘lgan jarayonda kechadi. Kreativ o‘qituvchi shaxsining rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro kasbiga mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq [4, 156-b.].

Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarining integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq kasbiy-ijodiy faoliyat ko‘nikma va malakalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ tavsifga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o‘zlashtirilishi talab etadi [5; 19-b.].

O‘qituvchi kreativ faoliyati takomillashuvi shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan kreativ faoliyat va kreativ mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxs faolligi va kreativ

sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Bugungi zamonaviy o‘qituvchi kreativ faoliyatida har bir mahalliy sharoitga qarab o‘qituvchining kreativ sifatlarga ega bo‘lishini taqozo etadi [6].

Ayni paytda salmoqli amaliy-ijodiy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko‘pchilik o‘qituvchilar haligacha yetuk shaxs sifatida o‘zlarida va talabalarida kreativ sifatlarni qanday qilib shakllantirish tajribasini o‘zlashtira olmayaptilar.

O‘qituvchi kreativ shaxs shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan kreativ faoliyat va kreativ mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxs faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Bugungi zamonaviy o‘qituvchi kreativ faoliyatida har bir mahalliy sharoitga qarab o‘qituvchining kreativ sifatlarga ega bo‘lishini taqozo etadi.

Ayni paytda salmoqli amaliy-ijodiy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko‘pchilik o‘qituvchilar hanuzga qadar yetuk shaxs sifatida o‘zlarida hamda talabalarda kreativlik sifatlarini qanday qilib shakllantirish tajribasini o‘zlashtira olishmayaptilar.

Bugun oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan bo‘lajak ko‘plab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim olishga nisbatan qiziqishi yo‘qolgan. Buning natijasida o‘qituvchilar avvalgidek zavq-shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o‘ylashmayaptilar. Ta’lim-tarbiya tizimini boshqaruvchi organlar ham ta’lim olishga nisbatan xohish-istagi bo‘lmagan talabalarni faqat diplom uchun emas balki ijod qilish uchun, kreativlik faoliyatni takomillashtirishda, yangidan yangi chora-tadbirlar belgilansa maqsadga muvofiq.

Buning sababi nimada? Darslarning avvaldan o‘ylab, rejalashtirilib qo‘yilishi talabalar uchun qiziq bo‘lmayotganligi, balki ta’lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimul bermayotganligi, rag‘bat bildirmayotganligi. O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni rivojlantirish, ularni kreativ

fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lar edi [7].

O‘qituvchi shaxsida kreativlik sifatlarni takomillashtirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’nosini tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqot ishlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T:. O‘zbekiston, 2023. 80b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (23.09.2020) // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy majlisga qilgan murojaatnomasi. Babayev E. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. //Fan sohasida innovatsiyalar: nazariya va amaliyot, Iqtidorli talabalar ilmiy-amaliy anjumani materiallari.-Toshkent, 2011-yil 12-may.
4. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. –СПб: СПГУТД. 2006.
5. Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009. – с.184
6. Muslimov N.A., va boshqalar. Kompetentlik va kreativlik salohiyati asoslari. T. “O‘qituvchi”, 2015.
7. Eshquvvatov I.S., Klimova, N.J. (2023). Yosh oilalar bilan ijtimoiy ishning asosiy yo‘nalishlari. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(18 SPECIAL), 283-285.
8. Xudoyqulov X.J. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. -T.:”Innovatsiya-Ziyo”. 2021. - 284 bet.

Т.Ю.Тураев	Исползование категории функции времзнach, время, год программы microsoft office 2010.	116
A.K.Odinayev	Texnologiya fanidan yog‘och haqidagi bilimlarni berishda zamonaviy o‘qitish metodikasi	122
Ne’matov B.S.	O‘qituvchilarda kreativ faoliyatni takomillashtirishning shakl va metodlari	129
X.T.Axmedova	Maktabgacha ta’lim muassalarida xorijiy tillarni o‘qitishdagi muammolar va yechimlar	133
F.I.O‘razov	Oilaviy munosabatlarni shakllantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari	136
P.M.Saidova	Pedagog xodimlarning kasbiy deformatsiyasi	140
F.S.Safarov	Pedagogik asoslar orqali texnologik kompetentlikni rivojlantirish	146
F.B.Odinaboboyev	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy hunarmandchilik asosida kasb-hunarga yo‘naltirish	152
S.X.Amonov	Boshlang‘ich sinf darslarida steam ta’lim texnologiyalaridan foydalanish	159
Т.Ю.Тураев	Всползование категории функсии минуты, сегодня, секунды программы microsoft office 2010.	162
G‘.Abduqodirov, S.A.Baltabayev, D.Qodirov	Texnologik ta’limda uzviylikni takomillashtirish tamoyili	167
M.M.Baymetov	Texnologiya fanida o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish	170
R.Z.Narquchqarova	Umumta’lim maktablari o‘quvchilarida milliy-badiiy qadriyatlarga tasviriy san’at vositasida qiziqishni shakllantirishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi	174
M.K.Eshnazarov	Germenevtik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlari	178
F.Salomova, N.Yunusova	San’at maktablarda bolalarga tasviriy san’atni o‘qitishda zamonaviy o‘qitish vositalari asosida optimallashtirish	185
X.T.Maxamov, E.J.Turdiyev, M.X.Xursandova, F.Toshpulatova	Texnologiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda loyihalash faoliyatini o‘rni	188